XALQ DEPUTATLARI URGANCH TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Urganch tumani, Mustaqillik ko`chasi, 1-uy, +998 62 352 1818, 220500

2026-yil 7-avgust VII-26-79-12-173-K/26 Urganch tumani

Urganch tumani hududidagi tuproq ko‘chalarni shag‘allashtirish va ta’mirlash tadbirlari hamda ko‘rsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarining miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorning 8.a-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tumanlar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilgan. Bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tumanlar hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari tumanlar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi;

- 8.b-bandida mahalla fuqarolar yig‘ini buyurtmasi asosida homiylik mablag‘lari hisobidan ichki ko‘chalardagi mavjud tuproq ko‘chalarni shag‘allashtirish hamda ta’mirlash tadbirlarini obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan amalga oshirishga ruxsat berilgan. Bunda obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan mazkur vazifalarni amalga oshirishda har yil uchun tasdiqlanadigan dasturlarning bajarilishi kechiktirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi;

- 8.v-bandida budjet tashkilotlarining hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish (mavsumiy gul ko‘chatlari ekish, gazon yotqizish, sug‘orish tizimlarini tashkil etish) tadbirlarini budjet tashkiloti va obodonlashtirish boshqarmalari o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilishi belgilangan.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Urganch tumanida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish obodonlashtirish ishlari uchun majburiy to‘lov tariflari 1-ilovaga muvofiq;

Urganch tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan mahalla fuqarolar yig‘ini buyurtmasi asosida homiylik mablag‘lari asosida ichki ko‘chalardagi tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish va ta’mirlash uchun narxlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorida berilgan topshiriqlarni o‘z muddatlarida bajarish;

- tumanning markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish;

- tasdiqlangan tariflarning belgilangan tartibda qo‘llanilishini ta’minlash;

- xizmatlardan foydalanuvchi subyektlarga tariflar to‘g‘risida axborot berilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Masharipov zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Kengash raisi **XUDAYBERGANOV SHOKIRJON QODAMBAYEVICH**

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2026-yil 7-avgustdagi
VII-26-79-12-173-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Urganch tumanida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish obodonlashtirish ishlari uchun majburiy to‘lov tariflari

Xizmat ko‘rsatiladigan subyekt va shaxslar	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)
Tadbirkorlik subyektlari uchun	Maishiy chiqindilar	m3	74 060
Tadbirkorlik subyektlari uchun	Obodonlashtirish ishlari	m2	700

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2026-yil 7-avgustdagi
VII-26-79-12-173-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Urganch tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan mahalla fuqarolar yig‘ini buyurtmasi asosida homiylik mablag‘lari asosida ichki ko‘chalardagi tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish va ta’mirlash uchun narxlar

Xizmat ko‘rsatish sohasi	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Narx miqdori (so‘m)
Aholi uchun	Tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish	m2	80 000
Aholi uchun	Asfalt qilish	m2	145 000